

**CHET TILINI O‘QITISHDA O‘ZBEK TILINING AHAMIYATI VA  
FARQLI JIHATLARI**

***Gulnoza Axmedova Atanazarovna***

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi*

*Filologiya fanlari nomzodi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada chet til o‘qitish metodikasi haqida, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet til o‘qitish metodikasida qo‘llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko‘nikma, malaka, didaktika, madaniyatlararo muloqot.

## **KIRISH**

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion – inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma’nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo‘lgan munosabati va boshqalarni o‘rgangan. Ilmiy yo‘nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o‘zaro farqalanadi.

“Yangilik”- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma’nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta’lim, ma’lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlananib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Ilm dunyomizga ilg’or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning ijrosi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan joriy yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili” deb nomlashi ham mamlakatimiz

yoshlarinining ma'suliyatini yanada oshirdi. Ta'lim sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo'lmaydi.<sup>1</sup>

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi.

Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rinn olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi.<sup>2</sup>

Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq

---

<sup>1</sup> Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3).

<sup>2</sup> Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.

bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o‘rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi.

Chet tillarni o‘rganish va o‘rgatish ko‘p jihatdan chet til o‘qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo‘llanilishiga bog’liqdir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Metodikaning predmeti – chet til predmeti orqali ta’lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o‘rgatish ilmi, muallim va o‘quvchi faoliyatini o‘rganish metodikaning predmeti sanaladi. Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika-nimani o‘rgatamiz? o‘qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika – qanday o‘rgatamiz? ta’lim usullari va metodlari demakdir.

Metod – metodika tushunchasi grek-lotincha “metodos-“metodus” so‘zidan olingan bo‘lib, ma’lum maqsadga eltuvchi yo‘llar, usul ma’nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma’nosini uchratish mumkin. “Metodika” atamasi tor ma’noda ta’limning konkret dars jarayoni bilan bog’liq tushunchani anglatadi. Mashg’ulotlarni rejalashtirish va o‘quv materiallarini tayyorlash bilan bog’liq bo‘lgan ko‘rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi. “Metod” atamasi keng ma’noda o‘quv materialini tanlash, tabaqlash va taqsimlanishni nazarda tutadi.<sup>3</sup>

Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab “didaktika” va “metodika” tor ma’noda qo‘llanilib kelinmoqda. Shunga ko‘ra didaktika ta’lim mazmuni nima o‘rgatiladi? Metodika esa ta’lim usullari qanday o‘rgatiladi? Masalalari bilan shug’ullanadi. Chet tillarini o‘rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o‘zga madaniyat ta’limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o‘z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o‘rganish uzoq vaqt

---

<sup>3</sup> Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).

yuqori darajadagi ta’lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat mакtablarida imtiyozga ega bo‘lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi.

Chet til o‘qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o‘qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fanni o‘qitish metodikasi fan bo‘lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Jumladan, chet til o‘qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiyl va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi.

Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug’ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodikaga oid kitoblarning eng qimmatlilari ham tilshunoslar tomonidan yozilgan. Bular jumladan XIX asr fonetistlaridan biri va buyuk ingliz tilshunosi G.Suit, XIX asr oxiri va XX asr boshida Angliyada eng original fonetist va nazariyotchi tilshunos hisoblangan O.Yesperson, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida eng ko‘zga ko‘ringan fransuz lingvistlaridan F.Bryuns va Brealya, ko‘zga ko‘ringan anglist va taniqli fonetist V.Fiyotor va boshqalar kiradi.<sup>4</sup>

Rossiyada til o‘qitish metodikasi masalasi bilan akademik L.V.Shcherba va uning ustozи buyuk tilshunos olim I.A.Boduen-de-Kurtone va ularning shogirdlari shug’ullanganlar. Chet til o‘qitish metodikasiga psixologlar o‘zgacha munosabatda bo‘ldilar. Metodika va psixologiya fanlarning o‘zaro munosabatlari haqida professor V.A.Artemov qimmatli fikr bildirgan. Uning fikricha, psixologiya metodika uchun material beradi. Metodika o‘qituvchining qanday dars o‘tishini o‘rganadi. Psixologiya esa, o‘quvchilarning bu predmetni

---

<sup>4</sup> Shokarimova, K. A. (2020). Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning talimtarbiya berishdagи ahamiyati. Science and Education, 1(Special Issue 2).

qanday o‘zlashtirib olayotganliklari bilan shug’ullanadi. Lekin, bu fikrga to‘la qo‘shilib bo‘lmaydi.

Chunki o‘qituvchi dars berish jarayonida, o‘quvchi esa o‘zlashtirish davrida ma’lum ruhiy jarayon va holatlarni boshdan kechiradilar, ular xohlaydilarmi, yo‘qmi psixologiyaning qonunlariga ro‘baro bo‘ladilar va ta’sirlanadilar. Metodika tarixga oid adabiyotlarni chuqurroq o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san’at deydilar. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, ya’ni “yaxshi” yoki “yomon” metod yo‘q “yaxshi” yoki “yomon” o‘qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda bayon qilingan fikrlari bilan javob berishi mumkin. U jumladan shunday deydi:

“Agar kimki metodikani san’at deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo‘llanishi bilan qorishtirib yuboradi”. Har bir fanda o‘z tushunchalar yig’indisi mavjud. Chet til o‘qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta’lim sistemasi, ta’lim metodi, ta’lim prinsipi, ta’lim vositasi, metodik usul.<sup>5</sup>

Chet til o‘qitish metodi – deyilganda chet til o‘rgatishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta’minlovchi muallim va o‘quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta’lim usullari yig’indisi” va “ta’limning yo‘nalishi” ma’nolarida qo‘llanadi. Birinchisi ta’lim nazariyasida jarayon metodlar ma’nosida ishlatsa, ikkinchi ma’noda uni o‘qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o‘qitishning tarjima metodi, tog’ri metod, ongли-qiyoziy metod, an’anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

Chet til o‘qitish metodikasi didaktika bilan uyg’un, o‘zaro bog’langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o‘quv fanlarining o‘qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma’lum. Chet til o‘qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta’limining umumiy

---

<sup>5</sup> Shokarimova, K. A. (2021). The way of improving reading and writing skills during the lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).

nazariyasi, metodika muayyan o‘quv predmetini o‘qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o‘qitish umumiylar nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o‘qitish ilmi sifatida qaraladi.<sup>6</sup>

“Metod” atamasi bilim, malaka, ko‘nikmani egallash, o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo‘lidagi o‘qituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma’nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son –sanoqsiz ta’riflarga ega. Chet tillar o‘qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to‘rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga “tarjima”, “tog’ri”, “qiyyosiy”, “aralash” deb atash qabul qilingan.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chet til o‘rganish ko‘p qirrali ta’limot bo‘lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o‘rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalilaniladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o‘rgatish samarali natija beradi. Chet til o‘rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo‘lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o‘qitish metodikasida keng qo‘llaniladigan metodlar:

kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilanchambarchas bog’liq va bir-birini to‘ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog’liq bo‘lganligi sababli, chet til o‘rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

---

<sup>6</sup> Ражапова, И. Т. (2019). Методика обучения видам русского глагола. Илм сарчашмалари.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O‘zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o‘rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv. *Science and Education*, 7(7), 215-220.
3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
4. Shokarimova, K. A. (2020). Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning talimtarbiya berishdagi ahamiyati. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).
5. Shokarimova, K. A. (2021). The way of improving reading and writing skills during the lessons. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
6. Ражапова, И. Т. (2019). Методика обучения видам русского глаголав. Илм сарчашмалари.